



KITOB MUTOLAASI - GLOBALLASHGAN DUNYODA JAMIYAT MA'NAVIY TARAQQIYOTINING KAFOLATIDIR

Rahmonqulova Nilufar O'ktamjonovna

Buxoro viloyat Qorako'l tumani Axborot-kutubxona markazi

Fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati rahbari

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Axborot oqimining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi hamda madaniyatlarning o'zaro ta'siri ortib borayotgan bir sharoitda kitobning tarbiyaviy, mafkuraviy va intellektual vazifasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada O'zbekistonda kitob nashriyoti, kutubxona tarmog'i va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, shuningdek so'nggi yillarga oid aniq statistik ko'rsatkichlar asosida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyati, ma'naviy taraqqiyot, globallashuv, axborot-kutubxona markazi, milliy dastur, mafkuraviy immunitet, kitob nashriyoti, raqamli davr.

Аннотация. В статье анализируется роль чтения книг и культуры чтения в духовном развитии общества в контексте глобализации. В условиях растущего потока информации, глубокого проникновения цифровых технологий в повседневную жизнь и усиления культурного взаимодействия образовательная, идеологическая и интеллектуальная функция книги приобретает все большее значение. В статье представлены выводы, основанные на государственной политике Узбекистана по развитию



книгоиздательства, библиотечной сети и культуры чтения, а также на конкретных статистических показателях за последние годы.

Ключевые слова: чтение книг, культура чтения, духовное развитие, глобализация, информационно-библиотечный центр, национальная программа, идеологическая невосприимчивость, книгоиздательство, цифровая эпоха.

Abstract. The article analyzes the role of book reading and reading culture in the spiritual development of society in the context of globalization. In the context of the increasing flow of information, the deep penetration of digital technologies into everyday life, and the increasing interaction of cultures, the educational, ideological, and intellectual function of the book is becoming increasingly important. The article presents conclusions based on the state policy implemented in Uzbekistan to develop book publishing, the library network, and reading culture, as well as specific statistical indicators for recent years.

Keywords: book reading, reading culture, spiritual development, globalization, information and library center, national program, ideological immunity, book publishing, digital era

Kirish

Bugungi globallashuv davrida dunyo miqyosida axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishi insonning ma'naviy dunyosi, tafakkuri va intellektual salohiyatiga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda kitob mutolaasi shaxsning bilim va dunyoqarashini boyitish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash hamda ma'naviy barkamollikka erishishning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.



Kitob insoniyat tafakkurining bebaho xazinasini, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat rivojining asosiy manbai hisoblanadi. Asrlar davomida kitob orqali avlodlardan avlodga ilmiy bilimlar, tarixiy tajribalar, axloqiy qadriyatlar va milliy an'analar yetkazib kelinmoqda. Shu bois kitob mutolaasi nafaqat shaxsning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va madaniy yuksalishiga ham bevosita xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda ma'naviy tahdidlarni ham olib kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan ishonchsiz axborotlar, ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ko'rinishlari, ma'naviy qadriyatlarga befarqlik hamda mutolaa madaniyatining pasayishi yoshlar tarbiyasida dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Aynan shunday sharoitda kitob mutolaasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga, axborotni tahlil qilishga, to'g'ri xulosa chiqarishga, Vatanga sadoqat, milliy g'urur va yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan muhim omildir.

Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining, ayniqsa, yoshlarning mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishini oshirish, zamonaviy kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish, elektron kutubxonalar va raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kitob mutolaasini jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Insoniyat tarixining har bir bosqichida kitob bilim, tafakkur va ma'naviyatning asosiy tashuvchisi bo'lib kelgan. Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy kabi buyuk allomalarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi, avvalambor, ularning bilimiga chanqoqligi va tinimsiz mutolaasi bilan bog'liq bo'lgan. Bugungi globallashuv davri esa mutlaqo yangi sinovlarni keltirib chiqarmoqda: axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt bilan omixtalashib ketgan zamonda inson ongi va tafakkuriga bo'lgan mafkuraviy ta'sir



kuchaymoqda, milliy o'zlik va qadriyatlarni saqlab qolish masalasi dolzarblashmoqda.

Ana shunday murakkab, ziddiyatli jarayonda kitob mutolaasi nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini oshiruvchi vosita, balki jamiyatni g'oyaviy buzg'unchilikdan, ma'naviy bo'shliqdan himoya qiluvchi ishonchli qalqon vazifasini ham bajaradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda kitob mahsulotlarini nashr etish, kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejiz emas. Mazkur maqolada ushbu jarayonning nazariy-amaliy jihatlarini aniq faktlar va statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi.

Globallashuv sharoitida kitobning ma'naviy-mafkuraviy vazifasi

Globallashuv jarayoni, bir tomondan, xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirib, insoniyatning ilg'or yutuqlaridan foydalanish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarning yagona, unifikatsiyalashgan "global madaniyat" ta'sirida siqilib qolish xavfini ham keltirib chiqaradi. Mafkuraviy tahdidlarning aksariyati, avvalo, inson ongi va qalbini nishonga oladi, shu bois yoshlarda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Mamlakat rahbariyati tomonidan ta'kidlanganidek, har qaysi davlat va xalq, avvalo, o'zining intellektual salohiyati va yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir, bunday yengilmas kuchning manbai esa insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti - kitob va kitobxonlardir. Shu nuqtai nazardan, kitob mutolaasi shaxsning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi, uni turli g'oyaviy tahdidlardan himoya qiluvchi eng ishonchli vositalardan biri sifatida baholanmoqda.



O‘zbekistonda kitob nashriyoti va kutubxona tizimining rivojlanish dinamikasi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda nashirlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari sonining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda: agar 2020-yilda ularning soni 168 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 252 taga, 2022-yilda 364 taga, 2023-yilda esa 458 taga yetgan. Bugungi kunda mamlakatda faoliyat yurituvchi nashirlik subyektlarining atigi 9 foizigina davlat ulushiga, qolgan 91 foizi esa xususiy sektorga tegishli bo‘lib, bu ko‘rsatkich sohaning bozor mexanizmlari asosida jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Nashr etilayotgan adabiyotlar hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda: 2023-yil davomida respublika noshirlari tomonidan 15 ming 867 nomda deyarli 40 million nusxa kitob mahsuloti chop etilgan bo‘lsa, 2024-yilning faqat dastlabki 10 oyida 12 ming 770 nomda taxminan 45 million nusxa adabiyot nashrdan chiqarilgan. Bu esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan kitob mahsuloti hajmining sezilarli darajada ko‘payganini ko‘rsatadi.

Kutubxona tarmog‘iga kelsak, Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko‘ra, respublikada jami 13 ming 46 ta axborot-kutubxona muassasasi faoliyat yuritib, ularning fondida 43 million 493 ming 497 nomda, jami 71 million 131 ming 175 dona kitob saqlanmoqda. Eng ko‘p kutubxona Samarqand viloyatida (1511 ta), eng kami esa Sirdaryo viloyatida (468 ta) joylashgan. Davlat kutubxonalari fondini boyitish va yangilash uchun 2024-yilda davlat byudjetidan qariyb 21,4 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan, shundan O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga 10 milliard 735,1 million, hududiy axborot-kutubxona markazlariga 8 milliard 910,8 million, ko‘zi ojizlar kutubxonalariga 1 milliard 440,8 million so‘m yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2020–2024 yillar davomida nasr, nazm, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik va badiiy tarjima yo‘nalishlarida jami 403 nomdagi kitob nashr etilgan, shu jumladan "Rus adabiyoti



durdonalari", "Turkiy adabiyot durdonalari" hamda "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari" nomli ko'p jildlik nashrlar tayyorlangan. Bundan tashqari, 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi doirasida jahonga mashhur 1000 nomdagi kitobni o'zbek tiliga tarjima qilish, nashrga tayyorlash va nashr etish uchun 12 milliard so'm mablag' ko'zda tutilgan.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati

O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini oshirish borasidagi ishlar tizimli huquqiy asosga ega. Xususan, mamlakat rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, shuningdek 2017-yil 13-sentyabrdagi tegishli qarori bu boradagi ishlarning boshlanishiga asos bo'ldi. 2020-yil 14-dekabrda esa Vazirlar Mahkamasining "2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, sohani rivojlantirishning aniq yo'l xaritasi belgilab berildi.

2026-yilning may oyida esa davlat rahbari tashabbusi bilan Birlashgan Arab Amirliklari bilan strategik sheriklik doirasida "Milliy kitobxonlik harakati" umummilliy dasturiga start berildi. Ushbu tashabbus Birlashgan Arab Amirliklarida 2015-yildan buyon amalga oshirilib, 200 milliondan ortiq o'quvchini qamrab olgan xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan bo'lib, maktablar, oilalar va butun jamiyatda kitobxonlik muhitini kuchaytirishga qaratilgan. Bu kabi tashabbuslar kitobxonlikni oddiy tanlov emas, balki millat kelajagi uchun strategik investitsiya sifatida baholashning yorqin isbotidir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hududiy axborot-kutubxona markazlari - jumladan, Buxoro viloyati Qorako'l tumani Axborot-kutubxona markazi kabi muassasalar - aholiga, ayniqsa yosh avlodga sifatli kitob mahsulotini yetkazish, kutubxona fondlarini zamon talablari asosida to'ldirish va saqlash borasida davlat



siyosatini amalga oshiruvchi bevosita bo'g'in hisoblanadi. Fondlarni ilmiy asoslangan tarzda to'ldirish, ularni tizimli ravishda saqlash va o'quvchilarga qulay tarzda yetkazib berish sohaning sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan faktlar va statistik ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, globallashtgan dunyoda kitob mutolaasi jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muqobilsiz kafolati bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda noshirlik faoliyati sub'ektlari sonining bir necha barobar o'sishi, kutubxona fondlarining yildan-yilga boyib borishi, davlat tomonidan sohaga ajratilayotgan mablag'larning ko'payishi hamda xalqaro darajadagi "Milliy kitobxonlik harakati" kabi yirik tashabbuslarning boshlanishi - barchasi kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, statistik o'sish yagona mezon bo'la olmaydi - kitobxonlik madaniyatining sifat jihatini oshirish, ya'ni o'quvchida mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma'naviy immunitet va yuksak did shakllantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Hududiy axborot-kutubxona markazlari, maktab va oliy ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning hamkorlikdagi izchil faoliyati orqaligina kitob har bir insonning kundalik hamrohiga, jamiyat esa haqiqiy ma'naviyatli, barqaror taraqqiy etuvchi jamiyatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 592 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va



kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi "2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

5. Jo'raqulov A., Bozorov X. Kitobxonlik madaniyati va uning shakllanishi. Toshkent: O'qituvchi, 2020. 148 b.

6. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni // Tafakkur jurnali. 2006. №4. B. 22–27.

7. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari: o'quv qo'llanma. Toshkent: Navro'z, 2015. 164 b.

8. Grinin L.Ye. Globalizatsiya i natsionalniy suverenitet // Istoriya i sovremennost. 2005. №1. S. 6–31.

9. UNESCO Institute for Statistics. Global education and reading indicators. Paris: UNESCO Publishing, 2023.

10. Giddens A. Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives. London: Profile Books, 1999. 104 p.

11. Beck U. Was ist Globalisierung? Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 1997. 269 S.